

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODIDA SAFARNOMA JANRI

Jo'rayeva Manzura Ahronqulovna

FarDU adabiyotshunoslik kafedrası mudiri, dotsent (PhD), O'zbekiston

E-mail: manzurajuraeva@gmail.com

<https://doi.org/10.59849/iscapltmt.2024.9>

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asarining janr xususiyati haqida so'z boradi. Publitsistik yo'nalishda yozilgan asar kundalik asosida safar taassurotlarini bayon etgan. XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib yetuk badiiy namunalarni yaratdilar. O'zbek jadid adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o'rni beqiyos. Mumtoz adabiyot tarixida safar tafsilotlarining bayon qiluvchi asarlarning ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Biroq safarnoma bilan sayohatnomani farqlab olish darkor. Safarning o'ziga xos g'aroyib tomoni shunda ediki, sayyohlar uchun belgilangan yo'lda musulmon masjid va madrasalari bilan birga nasroniylarning kalisolari ham joylashgan, ya'ni ikki madaniyat, ikki din obidolari yonma-yon yashar, inson irqi, millati, dinidan qat'iy nazar, bir ota-onaning farzandi ekanligidan dalolat beradi.

Behbudi kunda ko'rgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham ma'lumotlar berish orqali o'z fikrlarini aytib o'tadi. U islom dini va Qur'oni karimni yaxshi bilgan. Shuning uchun muhojirlarni mazhablarini bemalol ajratib olgan. Marv tomonni istilo etgan buxoriylarni sardori sarig' va ko'k ko'zli bir kishi ekanligi orqali real hayotdagi va tarixdagi insonlar portretlarini ham chizib beradi. Biroq safarnoma janri kompozitsiyasi boshqa janrlardan farq qiladi. To'liq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini hadafi (maqsad) emas. Muallif ba'zi odamlarga e'tiborli bo'lib, ularni asosiy jihatlarini, xulqu atvorini amalda ko'rsatadi.

Safari davomida Behbudi asosiy e'tiborini musulmonlarga qaratgan. Ularni bandligidan tortib, hatto ilm olishigacha, farzandlar tarbiyasi haqida ham yozib o'tadi. Bu safar Behbudi ruhiyatini tubdan o'zgartiradi. Adib millatdoshlari va Rusiyadagi musulmonlarni qiyoslash orqali bir to'xtamga keladi. Faqat o'qish, xalqni ilmi qilish. Har bir dardni davosi ekanligini tushunib yetadi. Safarga chiqishidan oldin ham, bu kundalikni yozishidan avval ham bu haqida bir qancha maqolalar yozgan, biroq unda qiyoslamagan edi.

Kalit so'zlar: janr xususiyatlari, memuar janri, kundalik janri, safarnoma va sayohatnoma janri tahlili, maktab

The travelogue genre in Mahmudkhodja Behbudi's works

Manzura Akhronqulovna Jo'rayeva

Associate Professor (PhD)

Head of the Department of Literary Studies, Ferghana State University, Uzbekistan

E-mail: manzurajuraeva@gmail.com

Abstract. The article discusses the genre features of Mahmudhoja Behbudi's work "Kasdi Safar". The work, written in a journalistic style, describes impressions from a trip based on a diary. Artists of the 20th century created mature artistic examples, creating in various genres of fiction. The role of classical literature in the formation and development of the travelogue genre in modern Uzbek literature is invaluable. In the history of classical literature, the roots of works describing the details of a trip go back to ancient times. However, it is necessary to distinguish between a passport and a

travel document. A feature of the trip was that on the road intended for tourists, along with Muslim mosques and madrassas, there are also Christian churches. ‘iy nazar indicates that he is a child of one parent. Behbudi writes down the events he saw during the day and gives interesting information about the history of each place. He will share his thoughts, providing information about immigrants and officials living in Bukhara. He knew Islam and the Holy Quran well. Therefore, he easily divided the immigrants by their sects. The fact that the leader of the Bukharans who invaded Marv’s side is a man with yellow-blue eyes, he also draws portraits of people in real life and history. However, the composition of the travelogue genre is different from other genres. Creating a holistic artistic image and character is not the goal of the author of the travelogue. The author pays attention to some people and shows their main sides and behavior in practice. During the trip, Behbudi focused on Muslims. He writes about their employment, education and raising children. This time, Behbudi will radically change his mentality. Writer ends by comparing his compatriots and Muslims in Russia. Only to study, educate people. He understands that there is a cure for any pain. Even before going on a trip, he wrote several articles about it before writing this diary, but did not compare.

Keywords: genre features, memoir genre, diary genre, travelogue and genre analysis of travelogues, school

Jadid adabiyotida badiiy proza ayniqsa faol rivojlantirildi: “epistolyar roman”, “sayohatnoma roman”, “tarbiya romani”, “falsafiy qissa” kabi qator yangi janrlar ishlab chiqildi; inson xarakterini yaratishning yangi-yangi imkoniyatlari kashf etildi, yangi usulu vositalar joriy qilindi. Ma’rifatchilik adabiyotida, ayniqsa, hayotni atroflicha badiiy tahlil etishu yaxlit badiiy konsepsiyani ifodalash imkonini beruvchi roman janri gurkirab rivoj topdi.

Fransuz adibi Monteskyoning “Fors maktublari”, ingliz yozuvchisi Goldsmitning “Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari” nomli asarlarida Yevropa voqeligi chet ellik kishilar — birida fors, ikkinchisida xitoylik kishi nigohi orqali beriladi. Bu xil badiiy-kompozitsion usulga murojaat qilinishining sabablarini qo’ya turaylik-da, Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi” asarlarida ham shu yo’ldan borilganini eslaylik. Yoki “Munozara”ning dialog shaklida qurilganini olaylik. Qadimgi yunon faylasuflari foydalangan bu shakl XYIII asrda ma’rifatchilar tomonidan tiriltirilgan, Didro, Lessing, Gerderlarning falsafiy-fransuz adibi Monteskyoning asari, ingliz yozuvchisi Goldsmitning “Dunyo fuqarosi yoki xitoylik kishi xatlari” nomli asarlarida Yevropa voqeligi chet ellik kishilar — birida fors, ikkinchisida xitoylik kishi nigohi orqali beriladi. Bu xil badiiy-kompozitsion usulga murojaat qilinishining sabablarini qo’ya turaylik-da, Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi” asarlarida ham shu yo’ldan borilganini eslaylik. Yoki “Munozara”ning dialog shaklida qurilganini olaylik. Qadimgi yunon faylasuflari foydalangan bu shakl XYIII asrda ma’rifatchilar tomonidan tiriltirilgan, Didro, Lessing, Gerderlarning falsafiy-publitsistik asarlari(hatto Didroning “Ramo jiyan” romani)dan ayrimlari ayni shu shaklda yozilgan edi. O’ylashimizcha, mazkur masala maxsus o’rganilsa, bulardan boshqa ham mushtarak o’rinlar topilishi, ehtimol.Yuqoridagi mulohazalarimizdan ko’rinadiki, yevropa ma’rifatchilik adabiyoti bilan jadid adabiyoti orasida qator o’xshashliklar mavjud. Buning sababi esa, bizningcha, ko’proq har ikki adabiyotni yuzaga keltirgan ijtimoiy-tarixiy omillar, har ikki harakat ko’zlagan maqsadlardagi o’xshashlik bilan izohlanishi mumkin. Albatta, har ikki adabiyotda ham konkret ijtimoiy-tarixiy sharoitning o’ziga xosligi, adabiy-madaniy an’ana bilan bog’liq spetsifik xususiyatlar ham yo’q emas. Biroq masalaning bu jihatiga to’xtalish bizning maqsadimizga kirmaydi.

XX asr ijodkorlari badiiy adabiyotning turli janrlarida ijod qilib yetuk badiiy namunalarni yaratdilar. O’zbek jadid adabiyotida safarnoma janrining shakllanishi va rivojlanishida mumtoz adabiyotining o’rni beqiyos. Mumtoz adabiyot tarixida safar tafsilotlarining bayon qiluvchi asarlarning ildizi qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Biroq safarnoma bilan sayohatnomani farqlab olish darkor. Bizning fikrimizcha, shu paytgacha o’zbek adabiyotida bu ikkita janr sinonim sifatida

qoʻllangan. “Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol oʻynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeyatga tobe” boʻladi. Muallif safarnomada oʻzidan biron jiddiy narsa qoʻsha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm boʻlishi kerak. Baʼzi mualliflar oʻrta asrlarda baʼzi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy taʼsir yetkazishi mumkin”[6, 149-bet]. Memuar janrining yana bir shakli bu kundalikdir. Safarnoma erkin janr boʻlib, bu boshqa janrlardan tubdan farq qiladi. Safarnoma janri kundalik tarzida, maktub, xat tarzida, badiiylilik jihatdan boyitilgan asar tarzida, obrazlarga boy safar tasviri holatida tasvirlanadi.

Behbudiyning 1900 (1318) yili sakkiz oylik haj safariga, 1907 (1325) yili esa Rossiyaning Orenburg, Moskva, Peterburg, Qozon va Nijniy Novgorod shaharlariga borganiga, shundan keyin xonanishin turmush kechirib, asosan “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini nashr etish ishlari bilan mashgʻul boʻlgan.

“Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalining nashr etilishi bilan bogʻliq masalalar Behbudiy gardaniga “Sizif toshi” boʻlib tushdiki, bu nashrlarning moliyaviy muammolari oldida Samarqand general-gubernatorligidan ruxsat olish qiyinchiliklari holva boʻlib qoldi.

Behbudiy “Samarqand” gazetasini oʻzbek, fors va rus tillarida nashr etsam va bu gazeta Gʻarbidagi Bahri Hazardan tortib Sharqdagi Gʻulja va Qashqargacha, Shimoliy Qozogʻistondan Janubiy Afgʻonistongacha boʻlgan hududlarda yashagan xalqqa yetib borsa, ular ijtimoiy ongning uygʻonishi va madaniy hayotining yaxshilanishiga ozgina boʻlsa ham hissa qoʻshgan boʻlaman, Xudo xohlasa, ular gazetaga xatlar va maqolalar yozib, moliyaviy yordam ham koʻrsatadilar, deb umid qilgan edi. Afsuski, uning bu tabiiy umidlari roʻyobga chiqmadi. Mudroq xalq Behbudiyning orzu va gʻoyalarini tushunish va qabul qilishga hali tayyor emas edi. Shu hol “Samarqand”ning faqat bir yilgina umr koʻrishiga sabab boʻldi.

Behbudiy shirin (va real) orzularining roʻyobga chiqmaganidan qattiq iztirob chekdi. “Yetti yillik xonanishinlik digar tarafdin, aloyiqi roʻzgor, tijorat va 7-8 risolalar tahrir va nashri, dor ul-qazo ishlari, xususan, bir sanadin beri sobiq “Samarqand” jaridasi va hozirgi “Oyina” idorasining ishlari ruhan va jisman zaif etdi. Aʼzo va havaslarga kasalot paydo boʻldi... Attibbo va sayohatgʻa mashvarat berarlar. Tabiat (sh) u qadar noqobil va buzuqki, sayohatdan ham nafrat etar” deb yozgan edi u shu vaqtdagi sihat-salomatligi va kayfiyatini ifodalab.

Ammo Behbudiy shu vaqtda “Behbudiya” kutubxonasida kitob savdosini yoʻlga qoʻyish uchun ruxsat olganligi va kutubxona “Istanbul, Misr, Qrim, Kafkaz, Qozon, Oʻrungburg”, Hindiston”dan oʻzbek, tojik hatto rus kitobxonlarini qiziqtiradigan mavzulardagi kitoblarni keltirish rejasi bilan yashayotgan edi. Shuning uchun u 1914-yil 29-may, payshanba kuni, kech soat 7da poezdga oʻtirib, ikki oylik sayohatga chiqadi. Bu Behbudiyning Samarqand tuprogʻidan ilk bor chiqishi emas edi... Shunga qaramay, kimningdir...

Kupeda Behbudiyning bir oʻzi boʻlgani uchun uning kechinmalari yuragidan alanga yangligʻ otilib chiqadi.

Behbudiy “Qasdi safar” asarida safar tafsilotlari berilgan. Adibning ikki jildlik “Tanlangan asarlari” kitobi “Akademnashr” tomonidan 2021-yili nashrdan chiqdi. Kitobning “Sayohat xotiralari” deb nomlagan bobida “Qasdi safar” asari berilgan. Boʻlimga sayohat xotiralari, deyilsa-da, biroq adib oʻzi safar deb nom bergan. Bu safarnoma adibning boshqa publitsistik asarlaridan farq qiladi. Chunki Mahmudxoʻja Behbudiy safarga chiqqan kundan boshlab, kundalik tarzida koʻrgan voqealari, tabiat tasviri, xalqlar va millatlar taqdiri haqida bayon qiladi. Safarnomani boshida safarga chiqishni istagani, lekin bir muncha sabablar tufayli oila va ishdan uzula olmagan haqida, “Oyina” jurnali qismatidan xavotiri borligi haqida shunday deydi: “Bir sanadin beri idora ishiga oshno boʻlgan Sayyid Rizo afandi Alizoda janoblarining “Oyina”gʻa masʼul mudirligi uchun hukumatdan ruxsat olindi. Muvaqqat muharrirligi muallim Hoji Muin janoblarigʻa havola qilindi. Kitobat va tartibigʻa Mullo Faxriddin Rojiiy janoblari mutasaddidur. Olloh taoloning inoyati va qorilarning tavajjuhlariga

kamina boʻlmasa-da, “Oyina” eskicha chiqib turar va sayohatimizdan muxtasar suratda har hafta yozib turamiz” [2, 72-bet].

“Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalining nashr etilishi bilan bogʻliq Behbudiyning bir qancha orzu niyatlari bor ediki, ulardan biri oʻzbek, fors, rus tillarida nashr etish, uzoqdagi xalqlarga ham yetib borishi edi. Biroq uning niyatlari amalga oshmadi, “Samarqand” gazetasi bir yilgina umr koʻrdi. Ammo Behbudi “Behbudiya” kutubxonasida kitob savdosini yoʻlga qoʻyish maqsadida 1914 yil 29 may kuni poyezdga oʻtirib, ikki oylik safarga chiqadi.

Sayohatga chiqishni istagan adibga Rusiya Davlat Dumasi deputati Tevkelevdan taklifnoma keladi va shu taklifnoma asosida safarga chiqadi. Lekin safarga borishga doʻsti yoʻqligi, oʻgʻli Masʻudxoʻjani olib ketay desa, imtihonlari borligi, gimnaziya tayyorgarlik koʻrayotganini, rus, fransuz, nemis tili oʻrganayotganini taʻkidlaydi. Adib oʻzi yetishmagan orzulariga, koʻpgina tillarni oʻrganib, boshqa millat kitoblarini xalqqa yetkazish kabi orzularini farzandi orqali amalga oshirish istagini bildiradi. Oʻz bolasini namuna qilish orqali xalqni maʼrifatga, ilm olishga chorlaydi.

1914 yil 29 may kuni Samarqanddan poyezdga oʻtirganidan tortib, oilasi bilan xayrlashuv onlarini ham kundalik shaklidagi safarnomaga yozadi. Qalbidagi tugʻyonini, ayriliq azobi muallifni qiynaydi. Bu qiynoqqa na kitob oʻqish, na xayol surish taskin beradi. Uning qalbiga Qurʻoni karim taskin beradi.

Behbudi kunda koʻrgan voqealarni yozish bilan birga har bir joy tarixiga oid qiziq maʼlumotlarni keltirib oʻtadi. Buxoroga kelib yashayotgan muhojirlar va amaldorlar haqida ham maʼlumotlar berish orqali oʻz fikrlarini aytib oʻtadi. U islom dini va Qurʻoni karimni yaxshi bilgan. Shuning uchun muhojirlarni mazhablarini bimalol ajratib olgan. Marv tomonni istilo etgan buxoriylarni sardori sarigʻ va koʻk koʻzli bir kishi ekanligi orqali real hayotdagi va tarixdagi insonlar portretlarini ham chizib beradi. Biroq safarnoma janri kompozitsiyasi boshqa janrlardan farq qiladi. Toʻliq badiiy obraz va xarakter yaratish safarnoma muallifini hadafi (maqsad) emas. Muallif baʼzi odamlarga eʼtiborli boʻlib, ularni asosiy jihatlari, xulq atvorini amalda koʻrsatadi. Safarnomalarda asosan bir nafar-muallifni xarakteri koʻproq namoyon boʻladi [6, 150-bet].

Adib safarnoma janrida bir qancha sheʼriy sanʼatlar va tasvir vositalaridan foydalanadi. “Murgʻni boshi tashlanilsa, “rg” qolib 1200 sana uchun taʼrix chiqar, yaʼni Bayramalini buxoriylar halok etganlariga 132 sana boʻlur. Gʻoliblar shoiri ham “Sari Bayramali shud xalqai dor.” sheʼr aytganlar. Al-on Rusiya hukumati eski bandni tuzatib, Bayramali va Marv taraflarini obod etib turubdur. Bayramali yerlari hazrati imperaturgʻa mansub boʻlub, xalqgʻa ijaraga berilur. Bevosita Bayramali Marv shahri boʻlub, qadimda “Marvi Shohjahon” atalardi” [2, 74-bet].

Behbudi muammo qoidasiga amal qilib, sanani chiqarmoqda, yaʼni “murg” soʻzidagi bosh harf “mim” olib qoʻyilsa, “re” va “gʻayn” harflari qoladi. Abjad hisobida qoʻshilsa, ikki harfdan 1200 sana kelib chiqadi. Demak, 1200 sanada amirlik Marv shahrini qayta ishgʻol qilgan. “Abjad hisobi – arab alifbosidagi harflarning har biri maʼlum songa tengligi asosida yuritiluvchi hisob. YAʼni arab harflarining har biri alifbo tartibida maʼlum sonni ifodalaydi. Oson eslab qolinishi uchun sonlarni ifodalayotgan harflarni katʼiy alifbo tartibida birlashtirish orkali sakkizta sunʼiy soʻz hosil kilingan boʻlib, ular hech kanday lugʻaviy maʼnoga ega emas. Sharq mumtoz sheʼriyatida abjad hisobidan u yoki bu voqea hodisaning yuz berish vaktini kayd etish, sheʼrda turli soʻz oʻyinlarini yuzaga keltirish kabi maqsadlarda samarali foydalanilgan. Shuningdek, abjad hisoboti imkoniyatlari chiston, muammo kabi sheʼriy bosh qotirma janrlarida ham keng istifoda etilgan” [1, 4-bet].

“Safarnomada taxayyul (xayolot) albatta katta rol oʻynaydi, ammo u mustaqil emas, balki voqeaga tobe boʻladi. Muallif safarnomada oʻzidan biron jiddiy narsa qoʻsha olmaydi. Shuning uchun safarnomani asosiy metodi relizm boʻlishi kerak. Baʼzi mualliflar oʻrta asrlarda baʼzi narsalarni tasvirlashda realizmdan foydalanganlar, ammo ushbu amal haqiqatni yoritishida safarnoma qimmatiga salbiy taʼsir yetkazishi mumkin” [6, 150-bet]. Marv shahri aholisi millati ularning kelib chiqishiga toʻxtalib, xalqning ilm-maʼrifati haqida fikr yuritadi. Adib safari davomida har bir millat

va ellatning kelib chiqishi, yashash sharoiti, ijtimoiy hayoti haqida fikr yuritar ekan, xalqlarning maʼrifati, ilm olish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tasvirlaydi. Xalqlarning ijtimoiy hayotini tasvirlash bilan cheklanmasdan, balki maʼrifatparvar, ziyoli shaxslar bilan uchrashganini ham taʼkidlaydi.

“Boku shahri Rusiyaning obodonlik jihatidan beshinchi shahri boʻlib, ammo musulmon davlatligining koʻpligi ila Rusiyada ikkinchi shahardur. Chunonchi, munda yuz miliyon soʻmlik mulku sarmoyaga doro bir necha musulmonlar boʻlib, milliyon sohibi musulmonlar yuzdan ziyoda, yarim milliyonlik musulmon yana ortuqroq, yuz ming sarvatlik musulmon esa oʻn minglar ila boʻlub, shaharning aksar mulki musulmonlar qoʻlidadir. Olloh ziyoda etsun!...” [2, 78-bet].

Safari davomida Behbudiy asosiy eʼtiborini musulmonlarga qaratgan. Ularni bandligidan tortib, hatto ilm olishigacha, farzandlar tarbiyasi haqida ham yozib oʻtadi. Bu safar Behbudiy ruhiyatini tubdan oʻzgartiradi. Adib millatdoshlari va Rusiyadagi musulmonlarni qiyoslash orqali bir toʻxtamga keladi. Faqat oʻqish, xalqni ilmi qilish. Har bir dardni davosi ekanligini tushunib yetadi. Safarga chiqishidan oldin ham, bu kundalikni yozishidan avval ham bu haqida bir qancha maqolalar yozgan, biroq unda qiyoslamagan edi.

“2 iyunda Bokudan chiqib, Mineralni voʻda (Maʼdan suvlari) maxattasigʻa mutavajjih boʻldikim, orasi 755 chaqirim boʻlub, bir kecha kunduz yurildi. Muning olti yuz chaqirimi komilan musulmon yerlari ham nihoyatda manbit va aʼlo yerlardurkim, arpadan sholigacha ekilgan va aksariyatan bahorikori va yerlari qaragʻpadur. Daraxtlari u qadar koʻpkim, Samarqandning Qaradaraxtu Miyonkoli anga nisbatan hechdur. Xalqi bizning pirsiyon, lazgi, dogʻistoni degan xalqdar boʻlib, yana doxilan, chechen, qoʻmuq va boshqa ismlar ila ataladur.

Biz, turkistoniylar, torganimizni toʻy, oʻluk va koʻpkarigʻa sarf qilgandek, bu musulmon qarindoshlarimizning aksari oʻz molini qiz olib qochib, janjaligʻa sarf etmoq, bir-birovlarini oʻldurub, yana qasosi nomashruʻ tariqida tarafayndan bir nechalab oʻldurub, soʻngra bor pullarini sudu sinod yoʻligʻa va umrlarini Sibiriya choʻllariga sarf qilib, nobud boʻlar ekanlar. Arolarida madrasa nomida bir shay yoʻq emish. Ammo oʻzlari nihoyatda iymonlik va amalsiz musulmonlardir” [2, 78-bet].

Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi safarning shu asosiy, ikkinchi qismini bezagan mamlakatlar va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni oʻrganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va Gʻarb mamlakatlarida roʻy bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno boʻlish, turk, fors, arab tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, oʻzining safarnoma parchalarini “Oyina” jurnalida eʼlon qilish yoʻli bilan vatandoshlarining ham dunyoqarashiga taʼsir koʻrsatish edi [3, 185-bet].

“Paroxoʻdda – aksariyat yahudiylarginadur va biroz rus fuqarosidan ham bor... Alarning aksari 3-sinfda va anbordadurlar. Bu yahudiy va ruslar avvalan Istanbulgʻa kirib, “Ayo Sufiya” va “Qaʼriya” jomeʼi va boshqa aziz kalisolarni va yahudiylar “Xoxom” boshini ziyorat etub, soʻngra Quddusi sharifgʻa ketarlar, yaʼni rus va yahudiy “hoji”laridurlar” [2, 86-bet].

Adib rus va yahudiylar eʼtiqodiga qisqa toʻxtaladi. Ularning ziyoratgoh joylarga navbatma-navbat borishi haqida toʻxtaladi, hayajonini yashirmaydi. Eʼtiqod har bir millatga xos ekanligi, har bir dinning oʻz qarashi va qoidasi borligini taʼkidlaydi. Ular bilan suhbatlashib, bir yahudiyning butun boyligini Turkistonning bir parcha yeriga almashtirib, u joyda dehqonchilik qilimoqchiligini, biroq unga rus hukumati ruxsat bermasligini aytadi. Bu yahudiyning Turkiston haqidagi iliq fikrlaridan, ayniqsa, rus hukumatining ruxsat bermasligini eshitib, judayam xursand boʻladi.

Behbudiy safari davomida Bayrut, Yofa, Quddusi sharif, Xalil ar-Rahmon, Baytullahm singari shaharlardagi diqqatga sazovor joylarni borib koʻradi. Shu narsa gʻaroyibki, u bu shaharlarning birida teatr va sinematograf bor boʻlgani holda unga kirmaydi.

“Sinematografiyani ega va xizmatkorlari arab va ibriy sozlarini cholgʻuchilarni hammasi yaxudiy ekan. Tiyotriga arabiy, ibroniy, fransaviy, nemis tillarida rivoyat-pyesalar qoʻyulur ekan. Azbaski, mazkur tillar xalqidan munda koʻbdur. Falastin arablari ham Misr arablarini sababi ila

tiyotrchilikka biroz mayl qilubdurlar. Tiyoṛ pesalarini rivoyat atab, qadim va jadidlari yaxshi koʻz ila qarar emishlar.

Sinematograf ila men turgan otel orasinda ovruṛovoriy keng va muntazam bir yoʻl bino qilinib, tarafayn lampalar ila munavvar va munning oʻrtasinda hukumat qoʻnogʻi va ani jivorinda temir panjaralik aʻlo bir bogʻcha va sayrangoh bino filingandurki, inson munda oʻzini bir Ovruṛo shahrida koʻrar” [2, 142-bet].

Behbudiydek maʻrifatparvar, ilm va madaniyatga chanqoq insoning kino va teatrğa kirmasligi oʻquvchini taajjubga soladi. Safarnomasida bunga ham izoh beradi. Bu ham yuqorida taʻkidlaganimizdek, eʻtiqod masalasi bilan bogʻliq. Parchada Falastin va Misr arablari taʻsiri haqida gapirish orqali ham oʻz tuygʻularini namoyon etadi.

Safarning oʻziga xos gʻaroyib tomoni shunda ediki, sayyohlar uchun belgilangan yoʻlda musulmon masjid va madrasalari bilan birga nasroniylarning kalisolari ham joylashgan, yaʻni ikki madaniyat, ikki din obidalari yonma-yon yashar, inson irqi, millati, dinidan qatʻiy nazar, bir otanoning farzandi ekanligidan dalolat beradi.

Behbudiy kalisoldardan birining oldida toshkentlik yosh attorning narsa sotib oʻtirganini koʻrib qoladi. “Doʻkonigʻa biroz oʻlturdik. Mamlakatdan soʻradi. Qoʻliga bir necha nusxa “Oyina” va Turkiston xaritasini berdim. Ahli savod ekan. Toshkand shahrini koʻrsatdim. Beixtiyor xarita ustindagi Toshkandni oʻpib, koʻziga surtdi. Hubbul vatani min al-iyman. Xususan, vatan va ahli diyorning qadri musofirlikgʻa maʻlum boʻlur. Haqiqatan, vatan muqaddasdur” [2, 147-bet].

Behbudiy Yofadan Iskandariyaga ketayotgan paytida vatandoshini uchratadi. Taqdir taqozosi bilan 5-6 yildan beri Hindiston, Arabiston, Misr va Hijozni kezib yurgan qoʻqonlik yigit bilan tanishib qoladi. “Qasdi safar”ning soʻnggi sahifalarida samarqandlik Hoji Mir afandini uchratib qolishi, uning 3 oʻgʻli borligi, oʻgʻlilaridan biri fransuz maktabida oʻqishi, shu maktabning bitiruv kechasida ishtirok etganligi haqida batafsil toʻxtaladi.

Behbudiy bevosita jurnalistik faoliyati bilan bogʻliq safarda yurgan boʻlsa ham, uni chamasi, Samarqandda bundan-da muhim ishlar kutib turgan edi. Shu hol Behbudiyga “Qasdi safar”ning soʻnggi sahifalarini yozib, unga soʻnggi nuqta qoʻyish imkoniyatini bermagan. “Oyina” jurnalida peshma-pesh bosilayotgan safar taassurotlari shu hol tufayli yakunlanmay qolgandek taassurot uygʻotadi. Shunga qaramay, “Qasdi safar” Behbudiyning publitsistik merosida alohida oʻrin egallaydi [3, 194-bet].

Adib safarda koʻrgan va eshitgan voqealarini kundalik tarzida yozib borar ekan, har voqeaga, koʻrganlariga, tabiat tasviriga oʻz munosabatini bildiradi. Vatani, xalqi sharoiti bilan qiyoslaydi. Xalqlarning oʻrtasidagi urf-odatları, maʻnisiz orzu havaslar haqida gapirib, xalqni ilm olishi, ilmga intilishi kerakligini taʻkidlaydi. Mahmudxoʻja Behbudiy maorif tizimining islohotini umummamlakat, umummillat muammosi deb bilgan. Millatni millat sifatida tugashdan, jamiyatni falokatdan faqatgina maktab, ilm-maʻrifat islohotigina asrab qolishi mumkinligini keng ziyolilar ommasiga anglatishga intilib, tinmay kurash olib borgan.

“Qasdi safar” ham maʻrifiy, ham adabiy-estetik jihatdan nihoyatda muhim asar. Adib bu safarnomasida oʻz taassurotlarini yozish bilan birga mashhur va oddiy kishilar bilan uchrashuvlarini ibratli tomonlarini yoritadi. Qaysi shaharga bormasin, uning tarixi, obidalari, u yerdan chiqqan buyuk zotlar haqida maʻlumotlar toʻplaydi. Turli-tuman millatlar, ularning urf-odatları, udumlari, turmush madaniyati bilan qiziqadi. Ayniqsa, din, eʻtiqod masalalariga katta ahamiyat beradi. Qadimiy muqaddas obidalar, Rasululloh qadami tekkan qutlugʻ dargohlar, xususan, Quddusi sharifdagi mashhur Masjidal-Aqso ziyorati haqida ham batafsil bayon etadi.

Adib safarnomasida etnografik maʻlumotlarga ham keng oʻrin beradi: “Shom shahrining asl oti Damashqdur. Shom ismining asli “Shoʻmun” boʻlib, arabiy soʻl, yaʻni chap maʻnosini ifoda etuvchi va Yaman qitʻasi muqobilinda, yaʻni Hijozni magʻfirati tarozgʻa nisbatan chap tarafda voqeʻ boʻlgan

mamlakatgʻa tarafidan berilgan bir ismdur. Butun mamlakatni “Baroi Shom - Suriya” ham atalib, Nafsi shaharini oʻzini “Damashqi Shom” atalur” [2, 94-bet]

Behbudiyning safarga chiqishdan asosiy maqsadi mamlakatlar va va xalqlar hayoti bilan tanishish, ular hayotidagi ibratli tomonlarni oʻrganish, rus istilosi yillarida aloqa rishtalari uzilgan Sharq va Gʻarb mamlakatlarida roʻy bergan madaniyat yangiliklari bilan oshno boʻlish, turk, arab va fors tillarida nashr etilgan kitoblarni sotib olish, oʻzining va safarnoma parchalarini “Oyina” jurnalida eʻlon qilish yoʻli bilan vatandoshlarining ham dunyoqarashiga taʻsir koʻrsatish edi.

Behbudiy safarnomasida mumkin qadar aniqlik asosida yozishga harakat qilgan. Shaharlar oʻrtasidagi masofalar, uni bosib oʻtish muddati, geografik kengliklar aniq koʻrsatiladi. Safar tafsilotlarini bir tartibda keng va mufassal kundalik tarzida bayon etadi. Safarda oʻtgan har bir kunini sanama-sana tasvirlaydi.

Behbudiy asarida voqea tasvirida aniqlik, joy nomining aniq koʻrsatilishi, sodir boʻlgan voqea sanasini aniq berib borishi kabi xususiyatlari, kundalik tarzidagi safarnoma ekanligini isbotidir.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lugʻati. – Toshkent: Akademnashr, – 2010.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2021, 74-бет.
3. Каримов Н. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: Akademnashr, 2022, 185, 194-бетлар
4. Куронов Д. “Йўл эсдалиги”да тағмаъно қатламига доир // Шарқ юлдузи, 1998, №1, б.159.
5. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси.
6. Раҳими Мусулмониён. Назарияи адабиёт. – Душанбе: Маориф, 1990, 150-бет.
7. Тожибоева М. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аънаналари ва маҳорат масалалари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017, б.203.
8. Чўлпон. Асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1998, б.160.
9. Нәсәнли М. Ўзбек драматургиясина бахш. Мўқайисәли әдәбиyyатшўнаслиқ, 1, 2020, s.246-250, <http://dx.doi.org/10.29228/edu.169>